



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 4

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Abdullayev Jamshid Djamilovich

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMALARI TIZIMIDA TIBBIY XIZMAT DIAGNOSTIKA – TASHXIS QO'YISH BILAN BOG'LIQ SHARTNOMALARNING TUTGAN O'RNI.....5

2. Баходирова Нилуфар Зафар кизи

ФЕНОМЕН DATA-DRIVEN ЭКОНОМИКИ И ТРАНСФОРМАЦИЯ АНТИМОНОПОЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....12

3. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi

FUQAROLIK PROTSESSIDA GUVONNING HUQUQIY MAQOMI VA O'RNI.....19

4. Курбанова Лолита Алишеровна

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИКОМАНДИРОВАНИЯ РАБОТНИКОВ В ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....25

5. Po'latov Mirzohid Qo'zimurodovich

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLAR XODIMLARNI MAJBURIY TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI.....35

6. Abdulxoshimov Shoxruxbek Shuxratjon o'g'li

XODIMNI ISHDAN CHETLASHTIRISHDA HUQUQIY KAFOLATLAR VA PROTSESSUAL NIHOYA VOSITALARI.....44

7. Насритдинова Наргиза Шокиржоновна

АЙРИМ ҲОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА НОМУСТА ТЕГИШ УЧУН ЖИНОЙИ ЖАВОБГАРЛИК ВА УНИНГ ЖИНСИЙ ЭРКИНЛИККА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....51

8. Рапиқов Хурсанали Юлдошбоевич

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР БЕЗОРИЛИГИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАСИ.....58

9. Sadullayev Jahongir Jamshedovich

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA HUIJATLARNI SOXTALASHTIRISH: JINOYAT-HUQUQIY TAVSIF VA JAVOBGARLIK MASALALARI.....67

10. Musurmanov Bekzod Raximovich


TERGOV JARAYONIDA RAQAMLI (ELEKTRON) DALILLARNING NAZARIY TUSHUNCHALARI VA YURIDIK TABIATI.....75

11. Yusuvvalieva Rakhima Yusupovna, Amirkulova Parinamoi Behbud

LEGAL BASIS FOR THE PROTECTION OF MIGRANTS' RIGHTS IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....82

12. Бабаджанов Бахтиёр Бекович

ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ БАРҚАРОРЛИК, ТИНЧЛИК ВА ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ.....89



Po'latov Mirzohid Qo'zimurodovich,


Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-0407-916X

E-mail: pulatovmirzohid7@gmail.com

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLAR XODIMLARNI MAJBURIY TIBBIY KO'RIK DAN O'TKAZISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI

For citation: Pulatov Mirzokhid Kuzimurodovich. LEGAL PROBLEMS CONCERNING THE MANDATORY MEDICAL EXAMINATION OF PEDAGOGICAL STAFF IN HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082330>

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tashkilotlarining pedagoglari va boshqa xodimlarini majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish bilan bog'liq dolzarb huquqiy masalalar ko'rib chiqilgan. Xususan, oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog xodimlar va boshqa xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning majburiyligi, tibbiy ko'rikning turlari, davriy tibbiy ko'rikning muddatlarini belgilash, majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishni moliyalashtirish va boshqa dolzarb masalalar bo'yicha milliy qonunchilikdagi noaniqliklar va ziddiyatlar aniqlangan. Ayni ushbu muammolar sababli amaliyot turlicha shakllanganligi ko'rsatib berilgan hamda ular yuzasidan muallifning tahliliy fikr-mulohazalari bildirilgan. Pedagoglarning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish nuqtai nazaridan oliy ta'lim tashkilotlarida professor-o'qituvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'yicha qonun chiqaruvchining yondashuvini aniqlashtirish, bunda davlatning huquqiy siyosati va institutsional asoslari, tibbiy ko'rikdan o'tkazishning maqsad va vazifalari inobatga olinishi lozimligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tashkiloti, pedagog xodim, professor-o'qituvchilar tarkibi, mehnat shartnomasi, tibbiy ko'rik, majburiy tibbiy ko'rik, dastlabki tibbiy ko'rik, davriy tibbiy ko'rik, tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq xarajatlar.

Пулатов Мирзохид Кузимуродович,

Самостоятельный соискатель Ташкентского государственного юридического университета

ORCID: 0009-0009-0407-916X

E-mail: pulatovmirzohid7@gmail.com

ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЯЗАТЕЛЬНОГО МЕДИЦИНСКОГО ОСМОТРА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ РАБОТНИКОВ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются актуальные правовые вопросы, связанные с обязательным медицинским осмотром педагогических и иных работников высших образовательных

организаций Республики Узбекистан. В частности, выявлены пробелы и коллизии в национальном законодательстве, регулирующем обязательность прохождения медицинского осмотра профессорско-преподавательским составом и другими работниками, виды медицинских осмотров, порядок определения сроков периодических медицинских осмотров, а также вопросы финансирования обязательных медицинских осмотров и иные актуальные аспекты. Вследствие указанных проблем правоприменительная практика складывается неоднозначно, что обуславливает необходимость их научного осмысления. В статье также представлены авторские аналитические выводы по обозначенным вопросам. С точки зрения обеспечения социального и материального благополучия, а также профессионального развития педагогических работников, обосновывается необходимость уточнения подхода законодателя к регулированию обязательных медицинских осмотров профессорско-преподавательского состава с учетом правовой политики государства, институциональных основ, а также целей и задач проведения медицинских осмотров.

Ключевые слова: высшая образовательная организация, педагогический работник, профессорско-преподавательский состав, трудовой договор, медицинский осмотр, обязательный медицинский осмотр, предварительный медицинский осмотр, периодический медицинский осмотр, расходы, связанные с прохождением медицинского осмотра.

Pulatov Mirzokhid Kuzimurodovich,

Independent researcher of Tashkent State University of Law

ORCID: 0009-0009-0407-916X

E-mail: pulatovmirzohid7@gmail.com

LEGAL PROBLEMS CONCERNING THE MANDATORY MEDICAL EXAMINATION OF PEDAGOGICAL STAFF IN HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS

ANNOTATION

The article examines current legal issues related to the mandatory medical examination of teachers (professors) and other employees of higher educational organizations in our country. In particular, ambiguities and contradictions were identified in national legislation regarding the mandatory medical examination of teaching staff and other employees in higher educational institutions, types of medical examinations, determination of the duration of periodic medical examinations, financing of mandatory medical examinations, and other pressing issues. It is precisely for these reasons that the practice was formed differently, and the author's analytical views on them were expressed. From the point of view of caring for the social and material well-being and professional growth of teachers, it is necessary to clarify the approach of the legislator to the medical examination of professors and teachers in higher educational organizations, taking into account the legal policy and institutional foundations of the state, the goals and objectives of the medical examination.

Keywords: higher education organization, pedagogical employee, faculty, employment contract, medical examination, mandatory medical examination, preliminary medical examination, periodic medical examination, costs associated with undergoing medical examinations.

Kirish

Mamlakatimizda o'qituvchi kasbi va uning mehnatiga oid normalar birinchi marta konstitutsiyaviy norma sifatida belgilandi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etildi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi belgilandi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'qituvchilarning ijtimoiy himoyasi ularning sog'lig'i haqida davlat va jamiyatning qayg'urishini ham bildiradi. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23

sentabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining 53-moddasi uchinchi qismiga muvofiq ta’lim tashkilotlarining pedagog va boshqa xodimlariga sanitariya-gigiyenaga oid, epidemiyaga qarshi hamda profilaktika choralari bilan amalga oshiriladigan sog’liqni saqlash kafolatlanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 1 fevraldagi “Pedagogning maqomi to’g’risida”gi Qonunining 14-moddasi o‘n birinchi qismiga asosan pedagoglarning sog’lig‘ini saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi mustahkamlab qo‘yilganligini qayd etish o‘rinlidir.

Ta’lim sohasida pedagoglarning sog’liqni saqlashga doir huquqlarini kafolatlash, ta’lim muassasalarida sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta’minlash, pedagog kadrlarning salomatlik holatini kuzatib borish hamda ularning kasbiy faoliyatga yaroqliligini belgilab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu maqsadda 2026 yilning mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pedagoglarni majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to’g’risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi[1]. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to’g’risida”gi Qonunining 14-moddasi o‘n to‘rtinchi qismiga muvofiq ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Pedagog xodimlarni majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish haqidagi Hukumat qarori loyihasi aynan ushbu normani amaliyotga tatbiq etishning shakli bo‘lib hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ta’lim xizmatlari bozori hamda ta’limda ishtirok etuvchilar soni bo‘yicha O‘zbekiston doimiy o‘sish dinamikasini ko‘rsatib kelmoqda. 2026 yilning 1 mart holatiga ko‘ra mamlakatimizda oliy ta’lim tashkilotlari soni 207 tani, shundan universitetlar 125 tani, institutlar 43 tani, akademiyalar 5 tani, filiallar 33 tani tashkil qilmoqda. Mulkchilik shakli bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalari soni 48,79%, nodavlat oliy ta’lim muassasalari 35,75%, xorijiy oliy ta’lim muassasalari 15,46 % ga yetgan. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim berayotgan professor-o‘qituvchilarning soni esa 48977 nafarni tashkil qilmoqda. Shunday qilib, ikki yuzdan ortiq oliy ta’lim tashkilotlarida sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta’minlash, ellik mingga yaqin pedagoglarning sog’lig‘ini saqlash, salomatligini kuzatish va kasbiy faoliyatga yaroqligi ekanligini belgilab borishga zarurat tug‘ilmoqda[2].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pedagoglarni majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to’g’risida”gi qarori loyihasi ko‘ra O‘zbekiston Respublikasidagi barcha davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi pedagog xodimlarning har yili davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi majburiy hisoblanadi. Davlat ta’lim tashkilotlarining bevosita bolalarga ta’lim va tarbiya berish bilan band bo‘lgan pedagoglari tibbiy ko‘rikdan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar doirasida o‘tkaziladi. Nodavlat ta’lim tashkilotlari pedagoglarining tibbiy ko‘riklari esa tashkilotning mablag‘lari hisobidan tegishli litsenziyaga ega davlat va nodavlat tibbiyot muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Loyihaga ko‘ra, pedagogni majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi. Majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tish vaqtida pedagog o‘z ish joyi (lavozimi) va o‘rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod qilinadi[3].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pedagoglarni majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to’g’risida”gi qarori loyihasi 1-bandi to‘rtinchi xatboshisi bevosita bolalarga ta’lim va tarbiya berish bilan band bo‘lgan pedagoglarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni nazarda tutganligi sababli oliy ta’lim tashkilotlarida ishlovchi pedagog xodimlarga nisbatan uning normalari tatbiq etish borasida muammolar mavjud. Xususan, Qaror loyihasi bugungi kungacha munozarali bo‘lib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 360-moddasi(Majburiy tibbiy ko‘riklar) hamda 501-modda(Pedagog xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari)sidagi bevosita bolalarga ta’lim va tarbiya berish bilan band bo‘lgan pedagoglarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish qoidalarni yana takrorlayotganligi oliy ta’lim tashkilotlarida tibbiy ko‘rikning majburiyligi yoki ixtiyoriyligi bo‘yicha savollarni qayta-qayta kun tartibiga qo‘yilishiga sabab bo‘ladi.

Oliy ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha qonunchilikdagi mavhumlik amaliyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Buni oliy ta’lim tashkilotlarining xodimlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassisleri hamda huquqshunoslari o‘rtasida o‘tkazilgan

so‘rovnomana natijalari ham ko‘rsatib turibdi. Mazkur so‘rovnomada qo‘yilgan oliy ta‘lim tashkilotida tibbiy ko‘rikdan o‘tish majburiyimi degan savolga qirq nafar respondentdan 72,5 % majburiy, 17,5 % ixtiyoriy, 10% tibbiy ko‘rikdan o‘tish talab etilmaydi deb javob bergan[4]. Ushbu so‘rovnomana natijasi tibbiy ko‘rikdan o‘tishga oid qonun normasi va amaliyot bir-biridan farqli shakllanganligini ko‘rsatmoqda. Amaliyotda oliy ta‘lim tashkilotlarida ham pedagog xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish majburiy degan xulosa allaqachon shakllanib ulguranganligini qayd etish o‘rinlidir.

Yana bir muammo shundan iboratki, umuman ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarini tibbiy ko‘rikdan majburiy o‘tkazish tartibini Vazirlar Mahkamasining qarori bilan huquqiy tartibga solish qanchalik to‘g‘ri ekanligi, ushbu qarorning mehnat qonunchiligiga mosligi haqidagi savoldir. Ushbu savol O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360-moddasi ikkinchi qismidagi norma bilan bevosita bog‘liq holda tug‘ilgan. Chunki, Mehnat kodeksi 360-moddasining ikkinchi qismiga asosan mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarning hamda bajarilayotganida dastlabki va davriy majburiy tibbiy ko‘riklar o‘tkaziladigan boshqa ishlarning ro‘yxati va ushbu ko‘riklarning o‘tkazilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi. Xuddi shunday qoida O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 501-moddasining birinchi qismida ham belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra pedagog xodimlar va boshqa xodimlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan tartibda dastlabki tarzda (ishga qabul qilish chog‘ida) va davriy (ish jarayonida) majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tadi.

Hukumat tomonidan “Pedagoglarni majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 360, 501-moddalarida belgilangan huquqiy tartibga solish kim tomonidan amalga oshirilishi haqidagi qoidalarga mos kelmaydi. Shu kabi savollar oliy ta‘lim tashkilotlarida pedagog xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha ayrim huquqiy muammolar borligini va ularni bartaraf qilish dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism

Respublikamizda oliy ta‘lim tashkilotlarida pedagog xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishga oid qoidalar O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun, Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solingan. Mazkur normativ hujjatlarda pedagog xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tishga oid asosiy qoidalar o‘rin olgan.

Ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 360, 501-moddalari oliy ta‘lim tashkilotlarida pedagoglar va boshqa xodimlarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha asosiy qoidalarni belgilab bergan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360, 501-moddalariga misol sifatida keltirib o‘tish mumkin.

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, ta‘lim tashkilotlari hamda ularda ishlovchi pedagog va boshqa xodimlarni majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda bolalarni o‘qitish yoki tarbiyalashda ishtirok etuvchilar nazarda tutiladi. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-139-sonli Qonuniga asosan, bola(bolalar) deganda o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs(shaxslar) tushuniladi. Shu sababli Mehnat kodeksi 501-moddasining birinchi qismida qayd etilgan umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlarning bolalarni o‘qitish yoki tarbiyalash bilan bevosita shug‘ullanuvchi pedagog xodimlari va boshqa xodimlari jumlasiga o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan shaxslarga ta‘lim va tarbiya berish, ularni sog‘lomlashtirish ishlarida ishtirok etuvchilarga nisbatan tatbiq etiladi[5].

Tibbiyotchilar O.B.Yusupova, G.S.Atabayevalarning qayd etishicha, pedagog xodimlarning kasbiy faoliyati yuqori darajadagi ruhiy, hissiy, intellektual yuklamani vujudga keltiradi. Kompyuter tagida uzoq vaqt ishlash, jismoniy faollikning yetishmasligi, ovqatlanish rejimining buzilishi va yuqori ish yuklamasi, xususan ovoz-nutq yuklamasi va uzoq muddatli bir xil holatda turish pedagoglarning sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada pedagoglar kasbiy faoliyat bilan bog‘liq ko‘plab kasalliklarni orttirib olishi mumkin. Sog‘liqdagi jiddiy o‘zgarishlarni, kasalliklarni oldini olish choralardan biri sifatida majburiy tibbiy ko‘rikni kiritish lozim[6].

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2012 yil 10 iyuldagi 200-son buyrug‘iga ilova shaklida tasdiqlangan Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi

nizomning 1-bandiga ko'ra mazkur Nizom tibbiy ko'rikdan o'tishi shart bo'lgan lavozimlarga ega bo'lgan tashkilotlarga taalluqlidir. Majburiy tibbiy ko'rik bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilan banda bo'lgan pedagoglar va boshqa xodimlarga nisbatan tatbiq etilishi sababli Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom oliy ta'lim tashkilotlari uchun qo'llanilishi majburiy hisoblanmaydi. Shunga qaramasdan ayrim oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilishda mazkur Nizomning 19-bandiga muvofiq tibbiy ko'rikdan o'tib kelish bo'yicha F-25 shaklni to'ldirib kelishni talab qilmoqda. Chunki, Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 19-bandida tibbiy komissiya tomonidan xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni, shuningdek ularning kasbiy faoliyat yo'nalishiga oid ma'lumotlarni qayd etish maqsadida har bir xodimga ambulator tibbiy karta (025-u shakli) yuritiladi. Ambulator tibbiy kartada tibbiy ko'rikni o'tkazishda ishtirok etgan har bir vrach va mutaxassislarining xodimning kasbga yaroqlilik to'g'risidagi xulosalari ko'rsatilishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Biroq ayrim normalar umuman pedagoglar toifasini ko'rsatmasdan ham ba'zi talablarni belgilagan. Xususan, Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilovaning 6.12-bandida (mehnat jarayoni omillari, jismoniy zo'riqishlar) o'qituvchilik kasbi "ovoz boylamlarining zo'riqishi" bilan bog'liq zararli omilga kiritilgan bo'lib, har ikki yilda bir marta terapevt va otolaringologdan tibbiy ko'rikdan o'tishi lozimligi ko'rsatilgan. O'qituvchilarga ishga qo'yish uchun qarshilik ko'rsatuvchi umumiy tibbiy moneliklar qo'shimcha tibbiy moneliklar sifatida ovoz apparati funksional faoliyatining buzilishi bilan kechuvchi surunkali kasalliklar (surunkali laringit, faringit va boshqalar) kiritilgan. Bu yerda garchi pedagoglarning ta'lim turi bo'yicha toifalari ko'rsatilmagan bo'lsada, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360, 501-moddalariga asosan ushbu ko'rik bolalarga ta'lim va tarbiya berishni amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlariga taalluqlidir.

Ta'lim tashkilotlari pedagoglari va boshqa xodimlarini majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishda Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga 3-ilova muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Nizomga 3-ilova "Dastlabki tarzda va vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi shart bo'lgan oziq-ovqat sanoatida, savdo va bevosita aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlardagi ishlarda band bo'lgan, shuningdek umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim va boshqa muassasalarning bevosita bolalarga ta'lim yoki tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar va boshqa xodimlar ro'yxati" tasdiqlangan. Mazkur Ro'yxatning 7, 8, 9, 10, 15, 21, 22, 23, 24, 25-bandlarida ta'lim muassasalarining pedagog va boshqa xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishga oid qoidalar o'rin olgan. Xususan, Ro'yxatning 7-bandida umumta'lim maktablarining pedagoglari; 8-bandida "maktabgacha ta'lim muassasalari, bolalar uylari, maktab-internatlar, bolalar sanatoriylari, "Muruvvat uylari" va "Mehribonlik uylari" xodimlari; 9-bandida yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari xodimlari; 10-bandida ta'lim muassasalarining oshxonalar xodimlari, ekspeditorlar, ushbu muassasalarda oziq-ovqat mahsulotlarini tashuvchi transport vositalarining haydovchilari va omborxonalar xodimlari; 15-bandida suzish bo'yicha trenerlar, instruktorlar, basseyn va davolovchi vannalarda ishlovchi xodimlar davriy (bir yilda bir marta va ikki marta) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi belgilangan. Ta'kidlash lozimki, Ro'yxatning 7-10, 15-bandlarida nazarda tutilgan majburiy tibbiy ko'rik oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilariga taalluqli emas. Biroq Ro'yxatning 21-25-bandlari tibbiyot ta'lim muassasalarining hamda tibbiy muassasalarda faoliyat yurituvchi davolash ishi bilan bog'liq bo'lgan professor-o'qituvchilar tarkibi uchun majburiy tibbiy ko'rikni nazarda tutadi. Ya'ni, ushbu bandlardagi talab barcha oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilari uchun emas, balki faqat tibbiyot ta'lim muassasalari uchun tatbiq etiladi. Tibbiyot ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish asosi mazkur holatda mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda ishlaganlik sifatida majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishni belgilagan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida professor-o'qituvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'yicha xorijiy mamlakatlar qonunchiligi ham turlicha yondashuvlarni o'zida ifodalagan. Ko'p davlatlarda (Polsha, Qozog'iston, Tojikiston) oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish majburiy bo'lsa, boshqa davlatlarda (Rossiya, O'zbekiston) esa aksincha uning majburiyligi bo'yicha aniq normalar mavjud emas. Qozog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazifasini

bajaruvchisining 2020 yil 15 oktyardagi №QR DSM-131/2020-sonli buyrug'ining 1-ilovasida majburiy tibbiy ko'rik, laboratoriya va funksional tekshiruvlardan o'tishi lozim bo'lgan shaxslar guruhining 6-bandiga ko'ra boshlang'ich, umumiy o'rta, kasbiy, oliy ta'lim muassasalari, maktabdan tashqari muassasalar, kompyuter klublari xodimlari ishga kirishda dastlabki va ish faoliyatida davriy har o'n ikki oyda(o'quv yili boshlanishidan oldin – iyun, iyul, avgust) flyuooografiyadan o'tishlari lozimligi belgilab qo'yilgan[7].

Rossiya qonunchiligiga ko'ra pedagog xodimlar mehnat shartnomasini tuzishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart (MK 214-m., 3-q. o'n to'rtinchi xatboshisi, 29.12.2012 yildagi 273-FZ-sonli Federal qonunining 48-m., 1-q. 9-bandi, 2024 yil 2 noyabrdagi 30-7/3137080-11601-sonli xat). Bundan tashqari xodimlar(shu jumladan pedagog xodimlar ham) zararli yoki xavfli mehnat sharoitlarida ishlaydigan bo'lsalar(MK 220-m. 1-q.) yoxud bolalar muassasalari xodimlari bo'lsa, dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tishlari lozim(MK 220-m., 2-q.). Rossiya Mehnat kodeksining 331-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, sog'liqni saqlash sohasida davlat siyosati va huquqiy tartibga solishni ishlab chiqish uchun mas'ul federal ijroiya organi, ya'ni Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatda ko'rsatilgan kasalliklarga chalingan shaxslarga o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat berilmaydi. Pedagog xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzishning yana bir xususiyati ularni majburiy psixiatrik tekshiruvga yuborish zaruratidir (MK 220-m., 8-q., CCB 20.05.2022 yildagi 342n-sonli buyrug'iga 2-ilovaning 8-bandi)[8].

Ta'kidlash o'rinliki, pedagog xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish shunchaki rasmiyatchilik bo'lmay, balki uning maqsadi bir vaqtda bir nechta manfaatlarni himoya qilishning vositasi hisoblanadi. Mehnat va sanitariyaga oid qonunchilikni tahlil qilish asosida tibbiy ko'rikdan ko'zlangan bir nechta asosiy maqsadlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Pedagog xodimlar bolalar bilan ishlaganligi uchun ular bilan doimiy ravishda bevosita munosabatga kirishadi, shu sababli uning maqsadi infeksiya va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarni aniqlash, epidemiologik xavf tug'diruvchi shaxslarni ishga qo'ymaslik;

2. Pedagog xodimning sog'lig'ini himoya qilish. Tibbiy ko'rik pedagoglardagi kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, pedagogik faoliyatga qarshi ko'rsatmalarni aniqlash, kasbiy yuklamalar(asab tangligi, ovoz yuklamalar) sababli sog'lig'i yomonlashishining oldini olish;

3. Pedagog xodimning kasbiy layoqatini baholash. Xodim o'zi va yon-atrofidagilarga pedagogik faoliyatni davom ettirishi, zarur hollarda cheklovlar o'rnatish yoki mehnatning shart-sharoitlari bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin;

4. Kasb kasalliklarining oldini olish. Garchi pedagogik faoliyat "zararli" hisoblanmasada, lekin ruhiy-hissiy hayajon, ovoz apparatlariga yuklama, insonlar bilan muloqotning yuqori darajasi kabi xavf omillariga ega.

Shunday qilib, yuridik nuqtai nazardan tibbiy ko'rikdan maqsad xodimlar va uchinchi shaxslarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek mehnat vazifalarini bajarishga tibbiy jihatdan layoqatga egaligini belgilashdan iborat bo'ladi.

Ta'kidlash o'rinliki, ijtimoiy so'rovnomalarga ko'ra oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan respondentlarning 70% pedagog xodimlar mehnati kuchli ruhiy hayajonlanish va aqliy zo'riqish bilan bog'liq bo'lganligi sababli tibbiy ko'rikdan o'tkazish majburiy bo'lishi lozim, 15 % esa oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilar voyaga yetganligi sababli shart emas deb javob berishgan. Oliy ta'lim tashkilotlarida professor-o'qituvchilarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishni soha mutaxassisleri ham qo'llab-quvvatlagan[4].

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 292-moddasida xodimning majburiy tibbiy ko'rikdan u dastlabki yoki davriy xususiyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, o'tishi bilan bog'liq xarajatlarni kompensatsiya qilish ish beruvchining hisobidan amalga oshiriladi. Biroq oliy ta'lim tashkilotlarida professor-o'qituvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash amaliyoti ham turlicha shakllangan.

Oliy ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari sog'lig'i holatining tavsifi haqida nisbatan to'liq ma'lumot ushbu xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish natijasida berilishi mumkin. Biroq oliy ta'limda pedagog xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish respublikamizda muammoli masala

hisoblanadi. Shunday qilib, pedagoglarga tibbiy xizmat ko'rsatish ularning yashash joyi bo'yicha o'tkaziladi, maxsus tibbiy ko'riklarni o'tkazish esa muayyan xarajat qilishni talab qiladi. Ushbu xarajatlarni qoplash uchun oliy ta'lim tashkilotlarining budjetidan mablag' ajratish nazarda tutilmagan. Oliy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun tibbiy ko'riklar majburiy bo'lmaganligi uchun Toshkent davlat texnika universiteti pedagog xodimlarining 10 foizi yoki tadqiqotga jalb qilinganlarning 54,4 foizi tibbiy ko'rikdan o'tdi[9].

O'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalarga ko'ra oliy ta'lim tashkilotlarida professor-o'qituvchilarning tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash manbalari haqidagi savolga respondentlarning 60% professor-o'qituvchilarning shaxsiy mablag'lari hisobidan, 25% ish beruvchining hisobidan qoplanadi, deb ko'rsatgan. Ta'kidlash o'rinliki, hatto davlat oliy ta'lim tashkilotlarida ham bunday tibbiy ko'riklardan professor-o'qituvchilarni o'tkazish uchun xarajatlar smetaga kiritilmagan[4].

Shuningdek, huquq sohasidagi ekspert M.Kudryashovning qayd etishicha, "faoliyati bolalarni o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan barcha xodimlar" iborasi ma'lum bir xodimlar toifasini emas, balki shunday tashkilotda ishlovchi barcha xodimlarni qamrab oladi hamda bolalar degan o'n sakkiz yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar nazarda tutiladi[10]. Bundan tashqari umumrossiya ta'lim kasaba uyushmalarida e'lon qilingan maqolada turli yoshdagi (voyaga yetgan va voyaga yetmagan) o'quvchilar o'qiydigan ta'lim muassasalarida ishlovchi pedagog xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tishi majburiy emas, ular faqat zararli va xavfli mehnat sharoitlarida ishlagan taqdirdagina bunday ko'rikdan o'tishlari lozim bo'ladi[10]. Shunday qilib, oliy ta'lim tashkilotlarida ishlovchi pedagog xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi istisno etiladi, biroq amaliyotda ularni bunday tibbiy ko'rikdan o'tishga majburlashlar ancha keng tarqalgan.

Huquqshunos olim Sh.Ismoilovning ta'kidlashicha, ta'lim tashkilotlari hamda ularda ishlovchi pedagog va boshqa xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishda bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ishtirok etuvchilar nazarda tutiladi[5, B.308]. Bundan tashqari oliy ta'lim tashkilotlarida majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlar toifasi hamda ushbu ko'riklarning davriyligi masalasi bo'yicha ham bir qator savollar tug'ilgan. Xususan, buni o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalari ham ko'rsatgan. Oliy ta'lim tashkilotida ishlovchi qaysi toifa xodimlar majburiy tibbiy ko'rikdan o'tadi degan savolga 52,5% respondentlar professor-o'qituvchilar hamda boshqa barcha xodimlar (boshqaruv va texnik xodimlar), 30% esa professor-o'qituvchilar bilan birga ta'lim yoki tarbiya berishda band bo'lgan boshqa barcha xodimlar, 17,5% faqat professor-o'qituvchilar deb ko'rsatishgan. Oliy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari qancha muddatda tibbiy ko'rikdan o'tadi degan savolga respondentlarning 85% har yilda bir marta o'tadi deb javob berishgan[4]. Albatta qonunchilik mazkur savollar bo'yicha ham aniq normalarni belgilashi lozim.

Xulosa

Oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish mavzusini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pedagoglarning sog'liqni saqlashga doir huquqlarini kafolatlash, ta'lim muassasalarida sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash, pedagog kadrlarning salomatlik holatini kuzatib borish hamda ularning kasbiy faoliyatga yaroqliligini belgilab borish maqsadida faqat bolalarga ta'lim yoki tarbiya berishni amalga oshiruvchi(maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, bolalar uylari, maktab-internatlar, bolalar sanatoriylari va boshqalar) pedagog xodimlarni emas, balki oliy ta'lim tashkilotlari, qayta tayyorlash va malaka oshirish institutlari pedagog xodimlarini ham majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozimligi haqidagi normani O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qarori loyihasiga kiritish lozim. Bunda majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan pedagoglar deganda yuqorida nomlari keltirib o'tilgan normativ hujjatlardan "bolalarga" degan jumlaning chiqarib tashlash hamda majburiy tibbiy ko'rik tatbiq etiladigan ta'lim tashkilotlarini belgilab berish taklif etiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qarori loyihasining 2-bandi tshrtinchi xatboshisidagi "Davlat ta'lim

tashkilotlarining bevosita bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilan band bo'lgan pedagoglari" jumlasini "ta'lim tashkilotida mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi pedagoglar va boshqa xodimlar" jumalari bilan almashtirish lozim. Shuningdek, xuddi shunday o'zgartirishlarni O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 360, 501-moddalarida ham aks ettirish talab etiladi.

2. Ta'lim muassalarida majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi lozim bo'lgan xodimlar toifasini aniq belgilab berish taklif etiladi. Xususan, bunda birinchi navbatda "pedagog xodimlar"ga kiradigan xodimlar toifasi aniq ko'rsatib berilishi lozim. Ushbu qoida oliy ta'lim tashkilotlariga taalluqli. Ikkinchidan, "va boshqa xodimlar"ga ham aniqlik kiritilib, ularga "rahbar xodimlar", "o'quv yordamchi xodimlar" kirishi, ro'yxatga esa boshqa "texnik va yordamchi xodimlar" kirmasligini belgilab berish taklif etiladi.

3. Ta'lim tashkilotlarida o'qitish yoki tarbiyalash bilan bevosita shug'ullanuvchi barcha pedagog xodimlar va boshqa xodimlar uchun dastlabki tibbiy ko'rik ishga qabul qilishi chog'ida majburiy bo'lishi lozim. Ushbu qoida oliy ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari va boshqa xodimlariga nisbatan ham tatbiq etilishi talab etiladi. Bunday dastlabki tibbiy ko'rik pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy kasalliklar va boshqa kasalliklarni oldindan aniqlashga va xavflarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

4. Oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog xodimlar va boshqa xodimlarni majburiy davriy (ish jarayonida) tibbiy ko'rikdan o'tkazish muddati differensiallashgan bo'lishi lozim. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qarori loyihasiga 1-ilova bo'lgan Ta'lim tashkilotlarining pedagoglarini majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 3-bob 6-bandidagi "Davriy tibbiy ko'riklar bir yilda bir marta amalga oshiriladi" normasini "Davriy tibbiy ko'riklar muddati pedagog xodimlarning yoshi, jinsi, mehnat staji va boshqa omillarga qarab differensiallashgan bo'ladi" deb o'zgartirish taklif etiladi. Ushbu normaning kiritilishi ayrim hollarda majburiy davriy tibbiy ko'rik bir yildan kam bo'lgan muddatda ham o'tkazilishi, shuningdek bir yildan ko'p bo'lgan boshqa muddatlarni ham belgilash imkonini beradi.

5. Majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi belgilangan barcha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari va boshqa xodimlari uchun psixiatrik tekshiruvdan o'tkazish majburiy bo'lishi lozimligi haqidagi normani kiritish taklif etiladi. Pedagoglar mehnati kuchli ruhiy hayajonlanish, asab tangligi bilan bog'liq bo'lganligi sababli ta'lim oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash, kasbiy charchoq va buzilishlarni psixiatrik tekshiruvdan o'tish orqali oldini olishga erishiladi. Oliy ta'lim tashkilotlarida psixiatrik tekshiruv ishga kirishda, shuningdek har besh yilda o'tkazilishi tavsiya etiladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360-moddasi ikkinchi qismi, 501-moddasining birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasi 16-bandi bir-biriga zid qoidalarni o'zida ifodalagan. Ya'ni, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunda ta'lim tashkilotlarining pedagoglarini majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi deb ko'rsatilgan bo'lsa, Mehnat kodeksida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanishi mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovutlar bo'lgan taqdirda keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar qoidalari amal qiladi, degan normadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360, 501-moddasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasi birinchi qismi to'rtinchi xatboshisida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari bo'lgan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmasligi haqidagi norma belgilangan. Shuningdek, mazkur moddaning uchinchi qismida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi ko'rsatib o'tilganligini hisobga olib mazkur ro'yxatni ishlab chiqish va tasdiqlash taklif etiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Pedagoglarni har yili majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha qaror loyihasi ishlab chiqildi//Talimxabarlari.uz internet nashri// <https://talimxabarlari.uz/68962/> (A draft decision on mandatory annual medical examination of pedagogues was developed//Talimkhabarlari.uz internet publication)
2. Ta‘lim statistikasi portali (Education statistics portal) // <https://stat.edu.uz/>
3. Sog‘liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati (Press service of the Ministry of Health) // <https://gov.uz/uz/ssv/news/view/141200>
4. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ilmiy-amaliy sharh. 3-jildlik.3-jild. –Toshkent: Adolat, 2025. –B.307-308. (Scientific and practical review of the Labor Code of the Republic of Uzbekistan. Volume 3. Volume 3. -Tashkent: Adolat, 2025. -P.307-308.)
5. Юсупова О.Б., Атабаева Г.С.Оценка состояния здоровья профессоров-преподавателей вузов (на примере Хорезмской области)//AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE// С.244. <https://advancedscienti.com/index.php/AJAMS/article/view/4245/> (Yusupova O.B., Atabaeva G.S. Assessment of the health status of university professors and teachers (using the example of the Khorezm region)
6. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/V2000021443>
7. https://www.garant.ru/consult/work_law/1677035/
8. Заболеваемость преподавательского состава ВУЗа технического профиля. Ахмадалиева Н.О., Ф.И.Саломова и др// Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences //C/868/ <https://cyberleninka.ru/article/n/zabolevaemost-prepodavatelskogo-sostava-vuza-tehnicheskogo-profilya> (Morbidity of the teaching staff of a technical university. Akhmadaliev N.O., F.I. Salomova et al. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences //C/868/)
9. https://www.esur.ru/mariel/Razyasneniya_Minzdrava_RF_o_medosmotrah_rabotnikov_zanyatih_na_rabotah_v_organizaciyah_deyatelnost_kotorih_svyazana_s_vospitaniem_i_obucheniem_detey/
10. <https://ivo.garant.ru/#/document/481007627/paragraph/8/doclist/1540/9/0/0/медицинский%20осмотр:1>

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.